

15. Рубин В.Ф. Теоретические и практические проблемы адаптации в экстремальных условиях. -Тюмень.: ТГУ, 1984. -С. 17-54.

16. Mirametova N.P., Taumuratova G.N.. Features Of The Reaction Of The Cardiorespiratory System Of Children To Dynamic And Isometric Load In The Republic Of Karakalpakstan. The American Journal of Applied Sciences, 2020. № 2(11).- P. 23-27.

РЕЗЮМЕ. Мақолада Қорақалпоғистон Республикаси шароитида аҳолини сув билан таъминлаш муаммолари бўйича олиб борилган тадқиқотлар натижалари келтирилган. Сув таъминоти ва сугорилиш учун эр ости сувларининг ҳозирги ҳолати сезиларли даражада истеъмол қилиниши билан боғлиқ ва ҳар доим ҳам одамлар учун зарур бўлган йўналишга йўналтирилмайди. Гидрогеологик вазиятнинг ўзгариши кўпинча табиий муҳит ва аҳоли саломатлигининг махсус антропоген динамикасини яратди.

РЕЗЮМЕ. В статье приводятся результаты исследований проблем водоснабжения населения в условиях Республики Каракалпакстан. Современное состояние связано со значительным потреблением подземных вод как для водоснабжения, так и для орошения и не всегда направлены в нужную для человека сторону. Изменения гидрогеологической обстановки часто создают особую антропогенную динамичность окружающей природной среды и здоровья населения.

SUMMARY. The article the results of researches of ecological problems of water-supply and adaptation reactions of organism of children are driven to the terms of Priaralye. The modern state is related to considerable the consumption of underwaters both for a water-supply and for irrigation and not always directed in a necessary for a man side. The changes of hydrogeological situation create the special anthropogenic dynamic quality of natural environment and health of population often.

QASHQADARYO VOHASI GEOSISTEMALARINING TEXNOGEN LANDSHAFTLARI VA ULARNING EKOLOGIK VAZIYATINI OPTIMALLASHTIRISH

D.A.Olimova – *assistent o'qituvchi*

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: texnogen landshaft, geosistema, rekultivatsiya, geokologiya, bedlend, antropogen, optimallashtirish, degradedatsiya.

Ключевые слова: техногенный ландшафт, геосистема, рекультивация, геоэкология, бедленд, антропоген, оптимизация, деградация.

Key words: technogenic landscapes, geosystem, recultivation, geoecology antropogenic bedland, optimization, degradation.

Kirish. Mavjud boy tabiiy resurslar va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha zarur shart-sharoitlarni yaratish barqaror rivojlanishni ta'minlovchi asosiy omillardan sanaladi. Bu, shuningdek, mamlakat aholisi salomatligini ta'minlashning muhim shartlaridan hisoblanishini chuqur anglagan holda mustaqillikning dastlabki kunlaridan qulay tabiiy muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga kirishildi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Qashqadaryo okrugining iqtisodiy rivojlanishi tabiiy resurslarga va geokologik omillarga bog'liqdir. Shubhasiz, bu kelajakda ham davom etadi. Ushbu mintaqa iqtisodiy jihatdan rivojlanishida neft va gaz konlarining ahamiyati juda katta, shu sababli bu hudud mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy "lokomotivlaridan" biri bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga neft va gaz qazib olish atrof-muhit holatiga va Qashqadaryoning tub aholisi yashash muhitiga bevosita ta'sir qiladi.

Qashqadaryo okrugi hududida, tabiiy sharoitlari noqulay bo'lgan bir qancha konlar mavjud bularga misol Jarquduq, Odamtosh va Gumbuloq gaz konlari, Janubiy Qizilbayroq, Ko'chquduq va boshqa konlardir. Konlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish jarayonida atrof-muhitning barcha tarkibiy qismlarining (atmosfera havosi, suv va yer resurslari, o'simlik va hayvonot dunyosi) ekologik holatini doimiy monitoringini o'tkazish ko'zda tutilgan. Shu sababdan bugungi kunda Qashqadaryo okrugi tabiatiga texnogen omillarning ta'siri ilmiy tadqiq etish dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqot ishining obyekti sifatida Qashqadaryo okrugi olingan.

Tadqiqotning predmeti esa sanoat korxonalarini hududning atmosferasiga ta'siri, okrugdagi korxonalar ta'sirida suv va tuproq qoplamining geokologik holatini baholash, texnogen omillar ta'sirida o'simlik va hayvonot dunyosining davriy o'zgarishini kuzatishni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot ishimizning maqsadi Qashqadaryo okrugida tabiatga texnogen omillarning ta'sirini geokologik baholashdan iborat.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Texnogen landshaftlarni rekultivatsiya qilish va shu yo'l bilan ularni xo'jalikda foydalaniladigan unumdor yerlarga aylantirish masalalari E.A.Novikov (1976), L.V.Motorina (1978, 1985), V.I.Fedotov (1985), A.A.Abdulqosimov (1995, 2001, 2010, 2015), H.Vahobov (1995, 1998, 1999) va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari va asarlarida keng yoritilgan.

Qashqadaryo havzasi landshaftlarini o'rganish va landshaft xaritalarini tuzishning ayrim nazariy va uslubiy masalalari L.N.Babushkin va N.A.Kogay (1964, 1965), T.V.Zvonkova (1965), S.A.Nishonov (1967), Poslavskaya, M.F.Rasulov (1968), M.U.Umarov (1975), I.A.Xasanov (1992), S.I.Abdullaev (1997), R.Usmonova (1997, 2002) va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida yoritilgan.

Keyingi yillarda Qashqadaryo viloyatining landshaftlarini S.I.Abdullaev hamda landshaftlarni rekreatsiyada foydalanish imkoniyatlarini R.Usmonova o'rgandilar. Landshaftlarni tasniflashga doir mavjud tajribalarni, Qashqadaryo havzasida landshaft hosil qiluvchi omillar va landshaftlarning gorizontol va balandlik zonalligi xususiyatlarini o'rganish, kartografik materiallarni tahlil qilish, dala sharoitida olib borilgan kuzatishlar asosida R.Usmonova bu hudud landshaftlarini tipologik landshaft xaritasini tuzdi [2:37-39].

Qashqadaryo okrugi zaminida davlat balansi hisobidagi 55 dan ziyod gaz va gazli kondensat konlari aniqlangan. Bu konlardan 6 tasi gaz-neftli, ikkitasi neftli, 24 tasidan ziyodrog'i gaz – kondensatli va 3 tasi gaz konlaridir.

Qashqadaryo statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalarning hajmi Qashqadaryo okrugi hududida so'nggi 10 yillik davr oralig'ida (2010-2020) yuqori ko'rsatkichlar bilan o'sib bormoqda. Xususan, 2010-yilda 127,8 ming tonna zararli moddalar atmosferaga chiqarilgan bo'lsa, 2020-yilgi ma'lumotlarga ko'ra 152,2 ming tonna zararli moddalar atmosferaga chiqarilganligi qayd etiladi [<https://lex.uz/docs/-6479134>].

Viloyatlar kesimida oladigan bo'lsak, atmosferaga chiqarilgan zararli moddalarning hajmi bo'yicha respublikada Qashqadaryo okrugi Toshkent viloyatidan so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi. Bu esa okrug hududida mavjud kimyo va neft kimyo sanoatida faoliyat yurituvchi korxonalar hisobiga yuz bermoqda.

O'rta Osiyo janubiy qismining markazida joylashgan Qashqadaryo havzasi tog' va tekislik relyefiga ega bo'lib, landshaftlarning gorizontol va balandlik zonallik xususiyatlari issiqlik va namlanish sharoitlariga, aholining joylashish xususiyatlariga, relyefiga va inson tomonidan o'zlashtirilgan joylar va boshqa omillarga bog'liq. Tog'-kon sanoati korxonalari va texnogen landshaftlar bilan band bo'lgan joylarda tabiiy geokomplekslar va ularning tarkibiy qismlari bo'lgan geografik komponentlar inson xo'jalik faoliyati tufayli shu darajada o'zgarib transformatsiyalashib

ketganki, ularga dastlabki paytlarga xos bo'lgan tabiiy belgilar va komponentlarning tarixiy shakllangan o'zaro aloqadorlik mexanizmidan nishon ham qolmagan.

Qashqadaryo voha geosistemalarining texnogen landshaftlarini rekultivatsiya qilish antropogen landshaftlarning ekologik sharoitini optimallashtirishda, komponentlararo aloqadorlikni tiklash va uning barqarorligini mustahkamlash, buzilgan yerlardagi geokomplekslarni unumdorligini oshirish hamda ulardan oqilona foydalanishni tashkil etishda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizning barcha mintaqalarida, jumladan Qashqadaryo vohasida ham vujudga kelgan va keltirilgan texnogen landshaftlar, buzilgan yerlar qishloq xo'jalik ekin maydonlariga, yaylovlarga va geoeosistemalariga katta zarar yetkazmoqda. Hatto texnogen landshaftlar atrofidagi hosildor geokomplekslarni ifloslantirib, ularni qishloq xo'jaligida foydalanish uchun yaroqsiz yerlarga aylantirmoqda. Oqibatda agrolandschaftlar va yaylovlarning chegarasi hamda areallari qisqarib, ularning ekologik sharoiti salbiy tomonga o'zgarmoqda. Bunday sodir bo'layotgan jarayonlarning oldini olish, texnogen landshaftlarini va buzilgan yerlarni o'rniga hosildor, geoeologik jihatdan sog'lom agrokomplekslarni, antropogen yaylovlarni barpo etish uchun ularni rekultivatsiya qilish ishlarini amalga oshirish kerak (1-rasm). Tabiat manzarasini va atrof-muhitning ekologik sharoitini buzib turgan texnogen landshaftlarni va buzilgan yerlarni faqat rekultivatsiya qilish yo'li bilan optimallashtirish hamda ularning ekologik vaziyatini sog'lomlashtirish mumkin [5:www.stat.uz].



1-rasm. Muborak tumani cho'l yaylovlariga texnogen ta'sirning aks etishi

Tabiiy landshaftlarning degradatsiyalanishiga va ularning turli darajada buzilishiga foydali qazilmalarni yopiq usul bilan qazib olish ham katta ta'sir ko'rsatadi. Qazilma boyliklarni yopiq metod bilan qazib olingan joylarda tabiiy geosistemalar ikki tomonlama zarar ko'radi.

Birinchidan, yer ostidan qazib olingan rudalar boyitilgandan keyin bo'sh tog' jinslari hosildor yerlarning ustiga chiqarib tashlanadi va ular texnogen relyef shakllarini hosil qiladi. **Ikkinchidan**, yer ostidan qazib olingan tog' jinslari o'rnida katta-katta bo'shliqlar vujudga keladi, vaqt o'tishi bilan atmosfera yog'inlarining yerga singib borishi natijasida bo'shliqlar yuzaga cho'kib, antropogen karstlar, suffozion cho'kmalar va o'pirilgan joylar hosil bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida foydalanish uchun yaroqsiz bo'lgan texnogen landshaftlar va degradatsiyalashgan yerlar Qashqadaryo vohasi hududida yuzlab va minglab gektar maydonni tashkil etadi. Texnogen landshaftlar va buzilgan yerlarni melioratsiya yo'li bilan optimallashtirish, ularni qishloq xo'jaligida foydalanish uchun hosildor yerlarga aylantirish mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda nafaqat Qashqadaryo vohasi, balki O'zbekistonning barcha tog'oldi va tekislik zonalarida vujudga kelgan texnogen landshaftlarni rekultivatsiya-

lashtirish va geoeologik vaziyatni keskinligini optimallashtirish masalasiga kam e'tibor berilib kelinmoqda. Faqat ba'zi joylardagina mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan rekultivatsiya ishlari amalga oshirilgan. Bunga karyerlarda sun'iy ko'llarning barpo etilishi, antropogen bedlendlarni tekislab, ularning o'rnida mevali bog'larning yaratilishi, daryolar qayirlaridagi buzilgan yerlarni o'zlashtirib, madaniylashtirilgan dala hovli seliteb landshaftlariga aylantirilishi misol bo'la oladi.

Texnogen landshaftlarni rekultivatsiyalashtirish foydalanishga yaroqsiz bo'lgan geokomplekslarni optimallashtirish va atrof-muhitni ekologik jihatdan sog'lomlashtirishning eng ilg'or hamda samarali metodi hisoblanadi. Rekultivatsiya qilish natijasida texnogen landshaftlar vujudga keltirgan salbiy oqibatlarga barham beriladi. Geoeologik muvozanat tiklanadi, ekosistemalarning normal rivojlanishi va insonning xo'jalik faoliyati uchun qulay geografik muhit yaratiladi [4:79-80].

Qashqadaryo voha landshaftlari va ularning tarkibiy qismi bo'lgan barcha landshaftlar shu darajada o'zgartirilganki, ularning ichida tabiiy qiyofasini saqlab qolgan tabiiy geokomplekslarni topish qiyin. Voha landshaftlarini hosil qilgan komponentlar majmuasida xo'jalik faoliyat tufayli vujudga kelgan ko'plab geoeologik sharoitlar mavjud.

Bularga quyidagi landshaft ekologik muammolarni kiritish mumkin:

- o'zlashtirilgan yerlarda shakllangan agrolandschaftlardan samarali foydalanish to'la amalga oshirilmayotganligi;
- tabiiy va iqtisodiy geografik omillarni hisobga olgan holda qishloq xo'jaligi ekinlarini landshaft tiplariga mos holda joylashtirish sust olib borilayotganligi;
- atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalarining yildan-yilga ko'payib borayotganligi;
- ichki suvlarni zararli va zaharli birikmalar bilan ifloslanishi;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini nitratlar, pestitsidlar kabi kimyoviy minerallar bilan zaharlanishi;
- seliteb landshaftlarni sanoat korxonalari, maishiy-xo'jalik chiqindilari bilan ifloslanishi va ular tufayli inson salomatligiga salbiy ta'sir etayotgan ekologik vaziyatlarining keskinlashib borishi kabilardir [3:211].

Qashqadaryo voha landshaftlarini hamda atmosfera havosi, ichki suvlari, sug'oriladigan tuproqlar, madaniy o'simliklarining ekologik sharoitini optimallashtirish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bunda, birinchi navbatda, landshaftshunoslik fani yutuqlaridan foydalanish, ekologik sharoitni vujudga keltiruvchi va keskinlashtiruvchi mexanizmlarni tahlil etish, ilmiy jihatdan asoslangan optimallashtirish yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish lozim. Bu esa mavjud noxush ekologik vaziyatlarni oldini olish va optimallashtirish imkoniyatini beradi.

Xulosa. Qashqadaryo vohasining texnogen landshaftlarida vujudga kelgan va kelayotgan landshaft-ekologik sharoitni optimallashtirish va iqtisodiyotimizning barcha sohalarida yuqori samaradorlikka erishish uchun geokomplekslarning morfologik tuzilishi va mahalliy tabiiy sharoitini hisobga olish, qishloq xo'jalik ekinlarida almashlab ekishni yo'lga qo'yish, organik va mineral o'g'itlardan belgilangan me'yorda foydalanish, meliorativ chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish, mehnat resurslaridan maqsadga muvofiq foydalanish zarur. Ishlab chiqilgan tadbirlar majmuasini integrallashgan holda amaliyotga tatbiq etish esa voha geosistemalarining texnogen landshaftlarida ekologik muvozanatni barqarorlashtirish imkonini berishi tabiiy.

Adabiyotlar

1. BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturi. //http:www.uz/undp/org/content/uzbekistan.ru O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni.
2. Абдуллаев С.И., Усмонова.Р. Қашқадарё ҳавзаси текислик қисми ландшафтларни табақалашуви. //Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 23-жилд. –Тошкент: 2003.
3. Abdullaev S.I., Nazarov M.G. Selitib landshaftlarning xususiyatlari. //O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 51-jild. – Toshkent: 2017.
4. Abulqosimov A.A., Abdurahmanova Y.X., Davronov K.Q. Zarafshon botig'i voha landshaftlari va geoeekologiyasi. –T.: "Iqtisod-Moliya", 2017.
5. www.stat.uz.

REZYUME. Ushbu maqolada texnogen landshaftlardagi ekologik muammolar va ularni rekultivatsiya qilish masalalari hamda texnogen landshaftlar va ularni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar yoritilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматриваются экологические проблемы в техногенных ландшафтах и вопросы их рекультивации и меры техногенных ландшафтов направленные на их предотвращение.

SUMMARY. This article covers ecological problems in man-made landscapes and issues of their recultivation measures of man-made landscapes aimed at their prevention.

QASHQADARYO VILOYATI SUV OMBORLARINING SUV ZAHIRALARI VA ULARDAN UNUMLI FOYDALANISH MASALALARI

N.M.Suyarqulov – *assistent o'qituvchi*

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: suv ombori, suv resurslari, suv tejamkorligi, iqtisodiy mexanizmlar, irrigatsiya.

Ключевые слова: водохранилище, водные ресурсы, водосбережение, экономические механизмы, ирригация.

Key words: reservoir, water resources, water saving, economic mechanisms, irrigation.

Kirish. Mamlakatimizda bugungi kunda 50 dan ortiq suv omborlaridan qishloq xo'jaligi va sanoatining turli tarmoqlaridan foydalanib kelinmoqda. Respublikamizning janubiy hududlari bo'lgan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi suv omborlari ham mamlakatimiz irrigatsiya tizimida o'z o'rniga ega bo'lib, mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan xom-ashyo bazasi bo'lgan viloyatlardan hisoblanadi. Shu sababli bu mintaqani yer resurslarini suv bilan ta'minlash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Suv eng qimmat resursga aylanishi haqida ekspertlar XX asrda aytgan prognozlar bugun o'z isbotini topa boshladi. Negaki, 2030-yilga borib O'zbekistonda 7 milliard metr kub suv tanqisligi kuzatilishi va oqibatda mamlakat dunyodagi suv tanqis bo'lgan 33 ta davlat qatoriga tushib qolishi ehtimoldan yiroq emas, albatta. Bu esa qishloq xo'jaligida suvdan oqilona foydalanish, sug'orishning tejamkor usullarini qo'llashni jadallashtirishni taqozo etadi [1:6].

Asosiy qism. Davlatimiz tomonidan istiqlolning dastlabki yillaridayoq suv xo'jaligi rivojiga alohida e'tibor qaratmoqda. Qishloq va suv xo'jaligi Vazirligida Suv resurslari balansi va suvni tejaydigan texnologiyalarni rivojlantirish boshqarmasi tashkil etildi. Bugungi kunda suv resurslari 800 ta yirik gidrotexnik inshoot, umumiy sig'imi 19,4 mlrd km³ bo'lgan 54 ta suv ombori yordamida boshqarilmoqda. O'zbekistonda ham XX asrning ikkinchi yarmida ko'plab, turli kattalikdagi suv omborlari qurilib, ular, asosan daryo suvlarining suv rejimini boshqarish va energiya olish manbayi hisoblanadi. Ularning qurilishi va faoliyati bugungi kunda ham aholi ichimlik maqsadlarida bo'lib, yangi suv omborlari loyihalashtirishi va qurilishga olib kelmoqda.

Daryo suvidan unimlroq foydalanish maqsadida O'rta Osiyo davlatlari hududida keyingi yillarda bir qancha suv ombori loyihalandi, qurildi va bugungi kunda ham yangilari bunday ishlar regionda davom etib kelmoqda [2:47].

Viloyat hududida dastlabgi suv ombori Qashqadaryoning o'rta oqimida bunyod erila boshladi. U Chimqo'rg'on nomi bilan yurutilib, 1963-yilda to'liq quvvat bilan ishlay boshladi. Bu davrga kelib uning umumiy maydoni 44,4 km² maydonini egallaydi. Uning umumiy uzunligi 15 km bo'lib eng keng joyi 5,5 km, engchuqur joyi esa 30 m ni tashkil qiladi. Suv omborining to'la suv sig'imi 500 mln.m³, shundan 425 mln. m³ foydali suv sig'imi hisoblanadi. XX asrning 1967-yilidan 1987-yilgacha bo'lgan davrda Qashqadaryo viloyatining ichki suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida 12 ta yirik, o'rta va kichik hajmdagi suv omborlari barpo etildi [3:67].

Ma'lumki, namlik tanqis bo'lgan hududlarda tashkil

qilingan suv omborlar suvdan oqilona foydalanishda asosiy e'tibor irrigatsiya maqsadlarga qaratilgan bo'ladi. Biz quyidagi Qashqadaryo viloyatdagi 13 ta suv omborida 2017-yildan 2020-yilgacha bo'lgan vaqt davomida su suv omborida to'plangan suv miqdori va uning sarflanishi haqida tadqiqotlarni olib bordik (1-jadval).

Suv omborlari va ularning atrof – muhitga ta'sirini baholashni T.Shoto'rayev, P.Baratov, F.H.Hikmatov, Z.R.Sirliboyeva, D.P.Aytbayev, A.R.Rasulov, B.K.Soliyev, S.A.Azimboyev, I.Abdullayev va boshqalarning ishlari katta ahamiyatga ega. Qashqadaryo viloyatining ichki suvlari, hususan,daryolar, ko'llar, suv omborlari faoliyatini inson xo'jalik faoliyati tasirida davriy o'zlashtirishni Qarshi Davlat Universiteti olimlari S.I.Abdullayev, A.Najimov, R.Usmonova tadqiqot ishlarida ko'rishimiz mumkin. Biroq, viloyat suv omborlari va ularning atrof-muhitiga tasiri muammosiga doir ko'pgina ilmiy ishlar bo'lishiga qaramay, suv omborlarining landshaft-ekologik holatini aniqlash va baholash bo'yicha to'liq kompleks tarzda keng qamrovli ilmiy ishlar majmuasi yaratilmagan [1:5].

Respublikamiz miqyosida yagona suv siyosatani olib boradigan Suv xo'jaligi vazirligi axborot xizmatining bergan ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizdagi suv omborlarida jami 11,21 milliard kub suv yig'ilgan. Bu 2021-yilga nisbatan solishtirganda 1 milliard 261 million kub metrga ko'pdir. Lekin hozirgi yig'ilgan suv o'rtacha uch yillikka qaraganda 839 million kub metrga kamroq [3:7]. Yog'ingarchiliklar davrida Surxondaryo viloyatidagi Janubiy Surxon, To'palang suv omborlari, Qashqadaryo viloyatidagi Chimqo'rg'on, Pachkamar, Qamashi suv omborlari, Samarqand viloyatidagi Kattaqo'rg'on va Oqdaryo suv omborlari, Jizzax viloyatidagi Jizzax suv ombori hamda Toshkent viloyatidagi Ohangaron, Toshkent suv omborlari ancha to'ldi, o'ziga yarasha zahira yaratildi, lekin yetarli emas. Bu yil yoz nisbatan issiq, qurg'oqchil kelishi taxmin qilinmoqda. Xususan, ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil vegetatsiya davrida suv resurslari hajmi ko'p yillik meyorga nisbatan Sirdaryo havzasida esa 10-15 foiz, Amudaryo havzasida 15-20 foiz kam bo'lishi kutilmoqda. Qolgan daryolarda ham suv hajmi bilan bog'liq bashorat qilinayotgan raqamlar barqaror emas. Bu bir tomondan, qishloq xo'jaligida mo'l hosil yetishirishda jiddiy sinov bo'lsa, boshqa tomondan, vegetatsiya davrida suvdan yanada maqsadli va tejamkorlik bilan foydalanish, umuman, bu boradagi ishlarni yanada kengaytirishni taqozo etadi.

Prezidentimizning 2023-yil 1-apreldagi "Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydiganchora-tadbirlar to'g'risida"gi